

**Sharapova M. A. – TMI,
katta o‘qituvchi**

XALQ TA’LIMI TIZIMIDA BUDJET IJROSI YUZASIDAN MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI

Maqolada xalq ta’limi muassasalari o‘rtasida xarajatlarning taqsimlanishi, maktabgacha ta’lim muassasalarida nihoyasiga yetkazilmagan ishlar, bir tarbiyalanuvchi xarajatlarining bazaviy normativlari hamda aniqlangan noqonuniy harakatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xalq ta’limi muassasalari, maktabgacha ta’lim muassasalari, xarajat turlari, xarajatlarning taqsimlanishi, bazaviy normativlar, noqonuniy xarajat, kamomad.

В данной статье рассматривается распределение расходов между учреждениями народного образования, незаконченные работы в дошкольных учреждениях, базовые нормативы на одного воспитанника, а также выявленные незаконные действия.

Ключевые слова: учреждения народного образования учреждения дошкольного образования, распределение расходов, базовые нормативы, незаконные расходы, недостача.

In this article allocation of charges between establishments of folk education, unfinished works is examined in preschool establishments, base norms on one pupil, and also educed illegal actions.

Keywords: establishments of folk formation of establishment of preschool education, allocation of charges, base norms, illegal charges, shortage.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk yillardan boshlab hukumatimiz tomonidan ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga alohida e’tibor qaratildi. Mamlakatimizda qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”[1] ning vazifalardan biri yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta’limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko‘rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta’minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish deb belgilangan. Bu boradagi ishlar ko‘lami hali ham davom ettirilmoqda.


Xususan, ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan rahbar va pedagog xodimlarning moddiy sharoitlari yaxshilandi, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta’lim sifatini yaxshilash hamda ta’lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Yangi tipdagi maktablar va umumta’lim o‘quv yurtlari tarmog‘i rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda 144 ta litsey, 1412 ta kasb hunar kollejlari, 30 ta kollej

filiallari mavjud bo‘lib bo‘lib, ularda 1,5 mln. nafar o‘quvchi tahsil olmoqda. Pedagog va muxandis-pedagoglar soni 117 451 nafarni tashkil etmoqda[2].

Xalq ta’limi muassasalarini moliyalashtirishga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu sohaga jami davlat budjeti xarajatlarning 24 foizga yaqini yoki bo‘lmasa mahalliy budjetlar xarajatlarning 70 foizi miqdorda mablag‘lar ajratib kelinmoqda. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, davlat budjetidan 2013 yilda 6,1 trln so‘m, 2014 yilda 7,5 trln so‘m, 2015 yilda 8,5 trln so‘m va 2016 yilda 9,5 trln.so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan[3].

Ushbu xarajtlarning 75 foizi umumta’lim muassasalariga, 17 foizi maktabgacha ta’lim muassasalariga va 8 foizi maktabdan tashqari boshqa muassasalar hissasiga to‘g‘ri keladi (1-rasm).



1-rasm. Xalq ta’limi muassasalari o‘rtasida xarajatlarning taqsimlanishi

Xalq ta’limi muassasalarining xarajatlarini tarkibi bo‘yicha ko‘rilganda o‘rtacha hisobda ajratilgan mablag‘larning 70,5%i ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar (I guruh), 17,5%i ish haqidan ajratmalar (II guruh) va 12%i boshqa xarajatlar (IV guruh) hissasiga to‘g‘ri keladi[3].

Tizimni isloh qilish borasida amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda yaratilgan imkoniyatlardan foydalanmaslik holatlari ham uchrab turibdi.

Masalan, 2015 yilda Hisob palatasi tomonidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlari natijasida tasdiqlangan manzilli dasturlarga muvofiq 103 ta ta’lim muassasalariga umumiy qiymati 519,2 mln. so‘mlik jihozlar belgilangan tartibda yetkazilib yig‘ib

berilgan bo‘lsada, mutasaddi xodimlarning mas‘uliyatsizligi oqibatida, uzoq vaqt davomida foydalanilmasdan saqlanayotganligi ma‘lum bo‘lgan.

Ushbu ko‘rsatkich Buxoro viloyati bo‘yicha 17 ta ta‘lim muassasasida 92,7 mln. so‘m, Samarqand viloyati bo‘yicha 17 ta ta‘lim muassasasida 123,4 mln. so‘m, Farg‘ona viloyati bo‘yicha 7 ta ta‘lim muassasasida 58,4 mln. so‘m, Sirdaryo viloyati bo‘yicha 10 ta ta‘lim muassasasida 48,6 mln. so‘mni tashkil qiladi[4].


1-jadval

Jihozlardan foydalanmaslik to‘g‘risida ma‘lumot

№	Hududlar nomi	Muassasalar soni	Jihozlar qiymati (mln.so‘m)
1.	Buxoro viloyati	17	92,7
2.	Samarqand viloyati	17	123,4
3.	Farg‘ona viloyati	7	58,4
4.	Sirdaryo viloyati	10	48,6
5.	Boshqa hududlar	52	196,1
	Jami	103	519,2

Respublikadagi 85 ta ta‘lim muassasalariga manzilli dastur asosida yetkazib berilgan jami 485,4 mln. so‘mlik jihozlardan, ulardan foydalanish ko‘zda tutilgan maxsus xonalar, laboratoriyalar, ma‘muriy-metodik va boshqa xonalarda foydalanilmasdan, boshqa maqsadlarda foydalanib kelingan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 2 martdagi 15-son majlis bayoniga muvofiq, 273 ta maktabgacha ta‘lim muassasalarida mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan 146,0 mlrd. so‘mlik mukammal ta‘mirlash va jihozlash ishlarini bajarish belgilangan bo‘lib, bugungi kunga qadar dasturga kirgan maktabgacha ta‘lim muassasalarning 21 tasida (jamiga nisbatan 8%) ta‘mirlash ishlari nihoyasiga yetkazilmagan, jumladan, Sirdaryo viloyatida 11 ta (barchasi), Jizzax viloyatida 3 ta, Surxondaryo viloyatida 4 ta, Toshkent viloyatida 3 ta maktabgacha ta‘lim muassasalarida.




2-rasm. Mukammal ta`mirlash va jihozlash ishlarini nihoyasiga yetkazilmagan muassasalari to`g`risida ma`lumot[4]

O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Xalq ta`limi vazirligining 2015 yil 20 fevraldagi qo`shma qarori bilan maktabgacha ta`lim muassasalarida bir tarbiyalanuvchi xarajatlari hamda umumta`lim muassasalarida bir o`quvchi xarajatlarining bazaviy normativlari tasdiqlangan.

Normativlarga ko`ra, maktabgacha ta`lim muassasasidagi bir nafar tarbiyalanuvchining o`rtacha yillik xarajatlari 2,0 mln.so`mni tashkil etgan holda mahalliy budjetlardan 1,8 mln.so`m (90%) ajratilgan.

Guruhlar bo`yicha ko`radigan bo`lsak, 1 va 2-guruh xarajatlari 98,8 foizga, 4 guruh xarajatlari 74 foizga bajarilmoqda.



3-rasm. Maktabgacha ta`lim muassasalarida bir tarbiyalanuvchi xarajatlarining bazaviy normativlari hamda amalda ajratilayotgan mablag`lar[4], so`mda

Masalan, maktabgacha ta'lim muassasasida bir tarbiyalanuvchiga to'g'ri keladigan 4-guruh xarajatlari miqdori 645 ming so'mni tashkil etgan holda amalda 478 ming so'm, umumta'lim maktablarida esa bir o'quvchiga to'g'ri keladigan 4-guruh xarajatlari miqdori 164 ming so'mni tashkil etgan holda amalda 78 ming so'm mablag' ajratilgan.

Natijada markazlashgan holda yetkazib berilgan zamonaviy texnika, mebel va jihozlardan foydalanish samaradorligi tushib ketishi, tarbiyalanuvchilarni sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishi, bolalarga yaratilgan shart-sharoitlarning talab darajasida yaratilmasligi holatlari yuzaga kelmoqda.

Ta'lim muassasalariga davlat budjetidan ajratilgan mablag'larni noqonuniy sarflash, pul va boshqa moddiy boyliklarning kamomadi va o'zlashtirishlarga yo'l qo'yish holatlari ham uchrab turibdi.

Moliya vazirligi Nazorat-taftish boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlarda har yili xalq ta'limi muassasalariga davlat budjetidan ajratilgan mablag'larning 0,2-0,3 foizi miqdorda noqonuniy xarajatlar, kamomad va o'zlashtirishlar aniqlanmoqda. Masalan, 2015-2016 yillarda tekshiruvlar o'tkazilgan xalq ta'limi muassasalarining o'rtacha 97 foizida noqonuniy xarajatlar, kamomad va o'zlashtirishlar aniqlangan[5].

2-jadval

Xalq ta'limi muassasalarida o'tkazilgan tekshiruvlarda aniqlangan moliyaviy qonunbuzilish holatlari

	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil
XTV budjeti, trln so'mda	6,1	7,5	8,5	9,5
Moliyaviy xatoliklar summasi, mlrd so'm	14,7	21,6	37,8	38,9
Moliyaviy xatoliklar summasini ulushi,%da	0,24	0,29	0,44	0,41

Ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, moliyaviy xatoliklar summasini jami xarajatlardagi ulushi 2013-2015 yillarda ortib bormoqda, ya'ni 2013 yilda 0,24% 2014 yilda 0,29 % va 2015 yilda 0,44 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilda o'tgan yilga nisbatan kamaygan, ammo bu ko'rsatkichni yanada pasaytirish juda muhim bo'lib, bu holat budjet ijrosi nazoratini takomillashtirishni talab etadi[5].

Ijtimoiy soha xarajatlari, xususan xalq ta'limi xarajatlari mahalliy budjetlar hisobidan moliyalashtirilgan ekan, hukumatimiz tomonidan davlat budjetidan ajratilayotgan har bir so'mdan oqilona foydalanishda mahalliy hokimiyat organlari oldiga quyidagi vazifalarni belgilab berildi:

Birinchi dan, maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash manzilli ro'yxatida ko'zda tutilgan maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borilayotgan mukammal ta'mirlash ishlarining o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini qattiq nazoratga olish hamda ularning kommunikatsiya (suv, elektr, gaz ta'minoti) tarmog'ini yaxshilash, hududini o'rash va obodonlashtirish, shu jumladan ularda o'yin maydonchalarini tashkil etish ishlari uchun mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalari hamda homiylik mablag'larini jalb etish choralarini ko'rish;

Ikkinchi dan, faoliyati tugatilayotgan sport muassasalarining foydalanishga yaroqli sport inshootlari, jihoz va inventarlarini yangidan tashkil etilayotgan sport maktablari balansiga to'liqligicha o'tkazish choralarini ko'rish va kelgusida ularning samarali faoliyat ko'rsatishi, moddiy-texnika bazasi va trener-o'qituvchilar tarkibi bilan ta'minlash;

Uchinchi dan, ijtimoiy soha muassasalarini saqlash uchun ajratiladigan budjet mablag'larini, budjetdan tashqari mablag'lar, mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalari va homiylik mablag'larini hisobidan ijtimoiy soha muassasalarini kuz-qish mavsumida barqaror ishlashga tayyorlash bo'yicha hududiy manzilli dasturlarni shakllantirish va asosiy e'tiborni:

- tomidan chakka o'tadigan binolarning tom qismini mukammal ta'mirlash;
- jismonan va ma'nan eskirgan isitish qozonlarini yangi energiyatejamkor va yuqori samarali qozonlarga almashtirish hamda ularni muassasaning isitish tizimiga ulash;
- ijtimoiy soha muassasalarining eskirgan issiqlik tizimini va issiqlik izolyatsiyasini tiklash va ta'mirlash;
- xona pechlarini bosqichma-bosqich energiyatejamkor lokal isitish tarmoqlariga almashtirish.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda budjet ijrosi nazoratini kuchaytirish uchun keng qamrovli va tizimli ishlar majmuini amalga oshirish maqsadga muvofiq, ularning orasida ushbu nazoratni olib boruvchi xodimlarning malakasini, ish sifatini oshirish orqali nazorat tizimiga kuchli ta'sir o'tkazish alohida ahamiyat kasb etadi. Buning uchun, bizning nazarimizda, jumladan quyidagilarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- nazoratni amalga oshiruvchi tegishli mutaxassislarining yetarli tayyorgarlik va tajribaga ega bo'lishiga erishmoq lozim. Taftishchi oldiga qo'yilgan vazifani bajarish uchun yetarli darajada tajribaga, buxgalteriya hisobi va budjet bo'yicha malakaviy darajaga ega bo'lishi kerak;

- xolislikni ta'minlamoq kerak. Albatta, ijtimoiy adolat sharoitida xolislik bo'lmasa xech qanday taftish yoki tekshirishning keragi bo'lmaydi. Shuning uchun xam kabiy ahloq kodeksida xolislikning zarurligi haqida alohida to'xtalib o'tilgan;

- zaruriy kasbiy sinchkovlikka erishmoq lozim. Taftishchi bajarayotgan ishning sifati uchun doimo javobgardir. Zaruriy sinchkovlik bu ish hujjatlarini to‘liq ko‘zdan kechirish, yig‘ilgan hisobotlarning to‘laligi va oxiriga yetkazilganligi, taftish va tekshirish xulosasining haqqoniyligini ta‘minlashdan iboratdir;

- to‘g‘ri rejalashtirish va nazorat qilish kerak. O‘tkazilgan taftish yoki tekshirishga to‘la kafolat berish uchun u, avvalombor, to‘g‘ri rejalashtirilishi kerak;

- natijalarni o‘z vaqtida ma‘lum qilishga erishish kerak. Bu amalaga oshirilgan nazorat natijalarining samaradorligini va ularning ta‘sirchanligini belgilab berishda muhim ahamiyatga ega. Tekshiruvchi xulosasida tekshirilgan moliyaviy hisobot to‘la umumiy qabul qilingan buxgalteriya andozalariga mos holda tuzilganligi, albatta, ko‘rsatilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 29 avgustdagi 463-I- son Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi vazirligi ma‘lumotlari, <http://www.uzedu.uz/>
3. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi ma‘lumotlari, <https://www.mf.uz/>
4. O‘zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi ma‘lumotlari, <http://senat.uz/>
5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Nazorat-taftish boshqarmasi ma‘lumotlari, <https://www.mf.uz/>